ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti




13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№7(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 470 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash ........ 10
Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari ........ 14
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari........ 19
Dadonova Aziza Tulkunovna

Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili........ 23
Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna

Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi ........ 30
Tuksanova Zilola Izatulloyevna

Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili ........ 35
Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna

Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi........ 41
Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich

Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish ........ 47
Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna

Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli ........ 50
Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi

Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari ........ 54
Qobilov Voxidjon Zoxidovich

Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку........ 58
Мухамеджанова Римма Рашидовна

Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlari va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari........ 66
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi

Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili........ 70
Sadriddinova Feruza Meliyevna

Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinatal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish ........ 75
Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich

Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar........ 80
Qudratov O'ktam G'ofurovich

Ustoz–shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari ........ 85
Tursunov Xusniddin Isomovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari ........ 88
Safarova Halovat Barnoyevna

Globallashuv sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari........ 91
Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi

Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)........ 97
Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li

Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli ........ 101
Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi

The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy ........ 104
**Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna**

Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi ........ 109
**Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi**

O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari ........ 115
**Sabina Saitmurodova Olim qizi**

Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari ........ 119
**Komolova Iroda Xamidullayevna**

9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari ........ 123
**Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi**

Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlari ........ 126
**Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati ........ 130
**Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna**

Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar ........ 136
**G'aniyeva Maloxat Odilovna**

Ruhiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati ........ 140
**Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva**

Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari ........ 144
**Shasaidova Lola Shamaksudovna**

Социально-экологический кризис в Южном Приаралье ........ 149
**Сеитова З. П.**

Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari ........ 153
**Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimdjanovna**

Motivational Readiness for Continuous Professional Development ........ 162
**Okilova Kamola Sadulloyevna**

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari .. 166
**Davronova Zarrina Baxtiyorovna**

Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari ........ 173
**Musayeva Aziza Ibrohim qizi**

Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari ........ 178
**Sharipova Shaxnoza Xasanovna**

Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi ........ 183
**Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna**

Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari ........ 188
**Ibragimova Venera Azadovna**

Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish ........ 193
**Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna**

Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari ........ 197
**Raxmonova Gavhar Nuritdinovna**

Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection ........ 202
**Samarova Shoxista Rabidjanovna**

Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar ........ 209
**Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi ........ 213
**Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich**

Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation ........ 219
**Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi**

O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi ........ 225
**Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li**

Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari ........ 230
**Muxitdinova Nigora Mexriddinovna**

Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ........ 236
**Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li**

O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari ........ 239
**Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova**

Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari ........ 244
**Azerbayeva Elmira Muratbayevna**

Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish ........ 248
**Niyazova Bibiniso Boltayevna**

Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish ........ 253
**Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi**

Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruksiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish ........ 259
**Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi**

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...... 264
**Axrorov Xurshid Xamidovich**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 271
**G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi**

Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili ........ 275
**Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li**

Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья ........ 279
**Аъзамова Диёра Дильшодовна**

Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari ........ 286
**Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi**

Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida ........ 291
**Usarov Jabbor Eshbekovich**

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida ........ 297
**Umarova Gulhayo Murodiljon qizi**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari ........ 301
**Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna**

Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari ........ 305
**G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi**

Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта ........ 309
**Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi**

Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash ........ 313
**Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna**

Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi .......... 319
Aslonov Madamin Mansurovich

Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati .......... 324
Allanov Shuxrat Qilichovich

Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari .......... 329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li

Talabalarda maqsadga intiluvchanlik namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari va shakllanish jarayonlari .......... 335
Babadjanova Saiyora Khushnutovna

Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatida stress va vaqt bosimini boshqarish usullari.......... 340
Xalilova Soxibaxon Sadikjanovna

Namoyishli tajriba va laboratoriya ishlari asosida o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik-didaktik ta'minoti.......... 346
Isroilov Shermurod Shamsiddin o'g'li

Xotin-qizlarda ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining migratsiya turiga bog'liq differensial namoyon bo'lishi .......... 353
Axmedova Dildora Olimjonovna

Rus tilidagi mediamatnlar bilan ishlashda geymifikatsiya elementlarini qo'llash .......... 359
Maxkamov Shoxjaxon Rustambek o'g'li

Shaxsning o'zini anglash jarayonida refleksiyaning psixologik mohiyati .......... 365
Achilova Durdona

Bo'lajak oligofrenopedagoglar--ning praksiologik tayyorgarligining tarkibiy tuzilmasi .......... 370
Niyozova Dilfuza Rustam qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interaktiv raqamli o'yinlar va vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi .......... 375
Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi

Bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda innovasion surdo-texnologiyalar, neyro-trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning interaktiv sinergiyasini joriy etish.......... 380
X. I. Malikova

Onkologik bemorlarga psixologik yordam ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalari va ularning hayot sifatiga ta'siri .......... 385
Niyazova Nilufar Farxadovna

Zamonaviy ta'lim muassasalarida axborot-pedagogik ma'lumotlar bazasini yaratish va o'quv jarayonini monitoring qilishda undan samarali foydalanish metodikasi .......... 391
Mirzayeva Dilnoza Ulug'bek qizi

Моделирование текста как средство развития речи младших школьников: сопоставительный анализ отечественных и зарубежных исследователей .......... 395
Каипова Гузель Ильдаровна

Qisqa masofaga yuguruvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda kompleks mashg'ulot vositalarining samaradorligi .......... 400
Ruzmetov Furqat Ikramovich

Англоязычные заимствования в современном русском языке: функции и механизмы адаптации .......... 406
Мажидова А. О.

Oliy ta'limda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining raqamli savodxonligini oshirishning pedagogik asoslari tahlili .......... 411
Abduraimov Shaxboz Panji o'g'li

XXI asr kompetensiyalarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishda texnologiya fani roli.......... 417
Bozorova Lola

MELQO modeli asosida 6-7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rganish jarayonida tasavvur rivojlanganligini baholash metodikasi.......... 420
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi

Hozirgi jamiyat sharoitida yosh kelin-kuyovlarning yangi oilaviy muhitga moslashuv jarayoni ..... 426
**Nazirqulova Nodira G'anijanovna**

Epistemik tafakkurning ilmiy tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni ..... 429
**Raximova Aziza Davranbekovna**

Matematika ta'limida steam loyihalarini tashkil etishning nazariy-metodik modeli ..... 432
**Umarqulov Abdusattar Amanboyevich**

Педагогические и психологические основы формирования компетенций в сфере фриланса у учащихся общеобразовательных школ ..... 441
**Пурханова Толганай Жуманазаровна**

Talaba-qizlarda sun'iy intellekt savodxonligi va liderlik kompetensiyalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish texnologiyasi ..... 445
**Davlatjonova Mohidil Ulug'bek qizi**

Ko'zi ojiz talabalarni cholg'u chalishga o'rgatishda Brayl notasining o'rni va pedagogik samaradorligi ..... 449
**Raximov Yorqinjon Nuriddin o'g'li**

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishni boshqarishning tashkiliy-pedagogik jarayonlari ..... 456
**Kimsanova Rahnamo Solijonovna**

Tarixiy tafakkur tushunchasi, mazmun-mohiyati hamda pedagogik asoslari ..... 461
**Ashurova Gulnozaxon Asqaraliyevna**

Autizmga ega bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va ularni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash ..... 465
**Usmanova Nilufar Ilhom qizi, Utbasarova Umida Mexmanovna**

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini problemali ta'lim (PBL) texnologiyasi asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (adabiyotlar sharhi) ..... 470
**Keldiyorova Shoxida Xusniddin qizi**

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilar pedagogik mahoratini rivojlantirish modeli ..... 475
**Botirova Mohiraxon Olimjanovna**

I. Yusupovning "To'maris" poemasini o'qitish usullari ..... 481
**Allayar Darmenov**

Maktablarda uyali aloqa vositalaridan foydalanishni tartibga solish masalalari ..... 485
**Egamova Ma'suma Inomiddinovna**

"Loyiha - izlanish – rivojlanish" (LIR) modelining konseptual asoslari va tuzilmasi ..... 491
**Suyunova Marjona Xudoyshukur qizi**

Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari va zamonaviy tendensiyalari: ilmiy adabiyotlar tahlili ..... 495
**Xalimova S. A.**

Ways of Teaching Vocabulary Using Mobile-Assisted Language Learning (MALL) in English Language Teaching: A Review ..... 501
**Muborak Azimova**

Transformativ pedagogikaning konseptual modeli va ta'limdagi imkoniyatlari ..... 510
**Sh. E. Yakubova**

# "LOYIHA - IZLANISH – RIVOJLANISH" (LIR) MODELINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA TUZILMASI

Suyunova Marjona Xudoyshukur qizi
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Madaniyat va san'at sohasi menejmenti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada loyihaviy ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning mustaqil o'quv-izlanish faoliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan "Loyiha - Izlanish - Rivojlanish" (LIR) modelining konseptual asoslari, nazariy poydevori va tuzilmasi taqdim etilgan. Model Jon Dyuining "tajriba orqali ta'lim", Lev Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" va Barri Zimmermanning "o'z-o'zini tartibga soladigan ta'lim" nazariyalariga tayanadi. Maqolada modelning besh bosqichi, har bir bosqichda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zgarib borishi, "scaffolding" tamoyilining qo'llanilishi, shuningdek, modelning mavjud xorijiy modellar bilan qiyosiy tahlili keltirilgan. LIR modelining ilmiy yangiligi - scaffolding nisbatining aniq raqamli ifodasi (80:20 → 10:90), 5 mezon × 3 daraja bo'yicha mustaqillikni baholash tizimi hamda O'zbekiston maktabi sharoitiga moslashtirilganligi bilan belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** LIR modeli, loyihaviy ta'lim, mustaqil o'quv-izlanish faoliyati, scaffolding, fasilitator, refleksiya.

**Abstract:** The article presents the conceptual foundations, theoretical basis, and structure of the "Project - Research - Development" (LIR) model, aimed at developing students' independent learning and research activities through project-based learning technology. The model is based on the theories of John Dewey (learning by doing), Lev Vygotsky (zone of proximal development), and Barry Zimmerman (self-regulated learning). The five stages of the model, the changing roles of teacher and student at each stage, the application of the scaffolding principle, as well as a comparative analysis with existing foreign models, are described. The scientific novelty of the LIR model lies in the numerical expression of the scaffolding ratio (80:20 → 10:90), the assessment system of independence according to 5 criteria × 3 levels, and its adaptation to the conditions of Uzbek schools.

**Key words:** LIR model, project-based learning, independent learning-research activity, scaffolding, facilitator, reflection.

**Аннотация:** В статье представлены концептуальные основы, теоретический фундамент и структура модели "Проект - Исследование - Развитие" (ЛИР), направленной на развитие самостоятельной учебно-исследовательской деятельности учащихся на основе технологии проектного обучения. Модель опирается на теории Джона Дьюи ("обучение через опыт"), Льва Выготского ("зона ближайшего развития") и Барри Циммерманна ("саморегулируемое обучение"). Описаны пять этапов модели, изменение деятельности учителя и ученика на каждом этапе, применение принципа "скаффолдинга", а также сравнительный анализ с существующими зарубежными моделями. Научная новизна модели ЛИР заключается в числовом выражении соотношения скаффолдинга (80:20 → 10:90), системе оценки самостоятельности по 5 критериям × 3 уровням и адаптации к условиям узбекской школы.

**Ключевые слова:** модель ЛИР, проектное обучение, самостоятельная учебно-исследовательская деятельность, скаффолдинг, фасилитатор, рефлексия.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchidan mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy baholash va o'zi o'rganish jarayonini boshqarish ko'nikmalari talab qilinadi [1]. An'anaviy ma'ruzali dars formati bu ko'nikmalarni rivojlantirishda yetarli emas. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va "Ta'lim va fan sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" o'quvchilarning mustaqil faoliyatini va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan [2].

Shu bilan birga, loyihaviy ta'lim texnologiyasini O'zbekiston maktablariga moslashtiruvchi, o'quvchi mustaqilligini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi ilmiy asoslangan model hozirga qadar ishlab chiqilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi - "Loyiha - Izlanish - Rivojlanish" (LIR) modelining konseptual asoslari va tuzilmasini taqdim etishdir.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Loyihaviy ta'lim texnologiyasi va mustaqil o'quv-izlanish faoliyati masalalari o'zbek pedagogika fanida qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Tolipov va Usmonboyevaning "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot" asarida loyiha metodi o'quvchi faolligini oshiruvchi usul sifatida ko'rsatilgan. Muslimov va Mavlonova o'quvchi mustaqilligini rivojlantirishning pedagogik shartlarini tahlil qilib, o'qituvchi rolining o'zgarishi zarurligini ta'kidlagan. Karimova o'quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasini o'rganib, uyga vazifa va mustaqil ish shakllarining cheklovlarini ko'rsatgan.

Hasanboyev va boshqalar "Pedagogika" darsligida mustaqil ta'limning turli shakllarini tasniflab, reproduktiv va izlanuvchan mustaqillik o'rtasidagi farqni ilmiy tushuntirgan. Yuzlikayev pedagogik texnologiyalar va mahorat masalalarini ko'rib chiqib, o'qituvchi fasilitator roliga o'tishning zaruriyatini asoslagan. Ishmuhamedov va boshqalar innovatsion texnologiyalarning ta'lim sifatiga ta'sirini o'rganib, loyiha metodini zamonaviy o'qitish usullaridan biri sifatida tavsiya etgan. Saidahmedov yangi pedagogik texnologiyalar tavsifida loyiha metodiga alohida e'tibor qaratgan.

Inomov loyiha ta'lim texnologiyasini O'zbekiston maktabi kontekstida o'rganib, uning amaliy tatbiqidagi muammolarni aniqlagan. Biroq ko'rsatilgan tadqiqotlarning birortasida ham loyiha ta'lim texnologiyasini o'quvchi mustaqil o'quv-izlanish faoliyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan bosqichma-bosqich tashkil etuvchi va o'quvchi mustaqillik darajasini dinamik o'lchaydigan maxsus model taklif etilmagan. Aynan shu ilmiy bo'shliq LIR modelini yaratish zaruriyatini belgilaydi.

LIR modeli uchta asosiy nazariy manbaga tayanadi:

- *Birinchisi* - Jon Dyuining "tajriba orqali ta'lim" falsafasi: haqiqiy bilim faol tajriba va amaliyot orqali shakllanadi [3].
- *Ikkinchisi* - Lev Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi: o'quvchi yordam bilan erisha oladigan darajada ishlash uning rivojlanishini tezlashtiradi [4]. LIR modelida bu tamoyil "scaffolding" - bosqichma-bosqich kamayib boradigan yordam tizimi - shaklida amalga oshiriladi.
- *Uchinchisi* - Barri Zimmermanning o'z-o'zini tartibga soladigan ta'lim nazariyasi: muvaffaqiyatli o'quvchi o'z o'qish jarayonini maqsad qo'yish, strategiya tanlash, o'z-o'zini kuzatish va baholash orqali boshqaradi [5]. LIR modelidagi "Izlanish kundaligi" va "Refleksiya" bosqichi aynan shu ko'nikmani shakllantirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tizimli, kompetensiyaviy va loyiha asosidagi ta'lim yondashuvlariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, modellashtirish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, "Loyiha - Izlanish - Rivojlanish (LIR)" modelining konseptual asoslari, tarkibiy komponentlari va ularning o'zaro bog'liqligi pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, modelning nazariy tuzilmasi ishlab chiqildi. Olingan natijalar asosida LIR modelining ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### LIR modelining tuzilmasi: komponentlar va bosqichlar

LIR modeli uchta asosiy komponent va beshta bosqichdan iborat tizimli pedagogik model hisoblanadi. Uchta komponent - "L" (Loyiha), "I" (Izlanish) va "R" (Rivojlanish) - o'quvchi faoliyatining mantiqiy ketma-ketligini ifodalaydi. Beshta bosqich esa bu ketma-ketlikning amaliy tashkil etilishini ta'minlaydi.

1-jadval: LIR modelining tuzilmasi

| Komponentlar | Bosqich | Nomi | O'quvchi faoliyati | O'qituvchi roli | Nisbat | Vaqt |
|---|---|---|---|---|---|---|
| L | 1 | Rejalashtirish | Muammoni tushunish, maqsad qo'yish, reja tuzish, vazifa taqsimlash | Muammo beradi, yo'naltiruvchi savol beradi | 80:20 | 1–2 dars |
| I | 2 | Izlanish | Manba izlash, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish, saralash, kundalik yuritish | Kuzatadi, maslahat beradi | 50:50 | 1–2 hafta |
| R | 3 | Amalga oshirish | Mahsulot yaratish, guruhda ishlash, yechim ishlab chiqish | Texnik yordam beradi | 30:70 | 3–5 kun |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| R | 4 | Taqdimot | Sinfga taqdim etish, savollarga javob berish, himoya qilish | Tinglaydi, baholaydi | 15:85 | 1 dars |
| R | 5 | Refleksiya | Oʻz ishini baholash, xatolarni aniqlash, saboq chiqarish | Yoʻnaltiruvchi savol beradi | 10:90 | 30 daqiqa |

LIR modelining beshta bosqichi: komponentlar, faoliyat va vaqt taqsimoti (1-jadval):

*Birinchi bosqich* - **Loyiha** - LIR modelining “L - Loyiha” komponentini tashkil etadi. Ushbu bosqichda oʻqituvchi oʻquvchiga real hayotiy muammo beradi. Bu muammo bir nechta talabga javob berishi shart: oʻquvchilar hayotiga yaqin boʻlishi, bir nechta toʻgʻri javob varianti boʻlishi va ichki qiziqish uygʻotishi kerak. Masalan: “Sinf xonamizning havosi qanday yaxshilanadi?”, “Maktab bufetida eng foydali va arzon taom nima?”, “Shahrimizdagi suv sarfi qanday kamaytiriladi?” kabi muammolar oʻquvchini darhol qiziqtiradi. Hasanboyev va boshqalar ta’kidlaganidek, oʻquvchining motivatsiyasi asosan vazifaning hayotiy ahamiyatiga bogʻliq. Oʻqituvchi bu bosqichda “Suqrot uslubida” savol beradi - javob aytmaydi, balki oʻquvchini oʻzi topishga undaydi.

*Ikkinchi bosqich* - **Izlanish -** LIR modelining “I - Izlanish” komponenti boʻlib, oʻquvchining mustaqil bilish faoliyatini toʻgʻridan toʻgʻri ifodalaydi. Bu bosqich bir-ikki hafta davom etib, asosan uyda va maktabdan tashqarida amalga oshiriladi. Oʻquvchi turli manbalardan foydalanadi: internet saytlari va onlayn bazalar; kutubxona kitoblari va jurnallari; mutaxassislar bilan suhbat; kuzatish va eksperiment; soʻrovnoma oʻtkazish. Oʻquvchilarga “Izlanish kundaligi” beriladi - unda har kuni topilgan ma’lumotlar, paydo boʻlgan savollar va ertangi ish rejasi qayd etiladi. Yuzlikayev ta’kidlaganidek, oʻz oʻqish jarayonini kundalik koʻrinishida qayd etish oʻz-oʻzini tartibga solish koʻnikmasini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir.

*Uchinchi bosqich* - **Amalga oshirish** - “R - Rivojlanish” komponentining birinchi qismi boʻlib, oʻquvchi yigʻilgan ma’lumotlar asosida yakuniy mahsulot yaratadi. Mahsulot turli shakllarda boʻlishi mumkin: yozma hisobot, taqdimot, model, plakat, infografika, video material yoki amaliy tavsiyalar toʻplami. Bu bosqichda guruhning jamoaviy ishlashi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir guruh a’zosi oʻz vazifasini bajaradi, lekin yakuniy mahsulot birgalikda shakllanadi. Ishmuhamedov va boshqalar ta’kidlaganidek, jamoaviy loyiha oʻquvchilarda nafaqat bilim, balki muloqot, murosaga kelish va birgalikda qaror qabul qilish koʻnikmalarini ham rivojlantiradi.

*Toʻrtinchi bosqich* - **Taqdimot -** “R - Rivojlanish” komponentining ikkinchi qismi boʻlib, oʻquvchi oʻz loyihasini auditoriyaga taqdim etadi. Taqdimot 7-10 daqiqa davom etib, ikki qismdan iborat: taqdimot qismi (5-7 daqiqa) va savol-javob qismi (3–5 daqiqa). Bu bosqichda uchta muhim koʻnikma rivojlanadi: kommunikativ koʻnikma - oʻz fikrini aniq va ishonchli ifodalash; tanqidiy fikrlash - savollarga javob berish; va oʻz ishini himoya qilish - argumentlar keltirish. Saidahmedov ta’kidlaganidek, taqdimot oʻquvchi uchun faqat natijani koʻrsatish emas, balki jamoat oldida oʻz pozitsiyasini himoya qilish tajribasi hamdir.

*Beshinchi bosqich* - **Refleksiya -** LIR modelining yakunlovchi va eng muhim qismi. Koʻpchilik oʻqituvchilar loyihani taqdimot bilan tugatadi, biroq refleksiyasiz oʻrganish toʻliq emas. Refleksiya oʻquvchiga oʻz faoliyatini qayta koʻrib chiqish, xatolardan oʻrganish va keyingi loyiha uchun saboq chiqarish imkonini beradi. Oʻquvchi uchta asosiy savolga javob beradi: “Nima yaxshi chiqdi?”; “Nima qiyin boʻldi?”; “Keyingi safar nima qilardim?”. Inomov ta’kidlaganidek, refleksiya oʻquvchining metakognitiv rivojlanishiga - ya’ni oʻz oʻrganish jarayonini anglash va boshqarish qobiliyatiga - toʻgʻridan toʻgʻri hissa qoʻshadi.

### LIR modelining mavjud modellardan farqli jihatlari

LIR modeli jahon pedagogikasidagi loyiha ta’lim modellari bilan qiyoslaganda bir qancha oʻziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. AQShning Buck Institute for Education (BIE) taklif etgan PBL modeli loyiha mahsulotini yaratish va taqdimotga urgʻu bersa, oʻquvchi mustaqillik darajasini oʻlchash mexanizmi kam taqdim etilgan. Finlandiyaning “fenomen-asosidagi ta’lim” modeli koʻp fanli yondashuvga urgʻu bersa, Oʻzbekiston maktabining bir fan tizimiga moslashtirilmagan. Rossiyalik Polat metodida loyiha bosqichlari batafsil tavsiflanib, oʻqituvchi va oʻquvchi rollari koʻrsatilgan, biroq dinamik “scaffolding” nisbati va refleksiya tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, LIR modeli mavjud modellarning ijobiy jihatlarini birlashtirgan holda oʻzbek maktabining oʻziga xos sharoiti - oʻquv dasturi, dars tizimi, oʻqituvchi tayyorgarligi va oʻquvchi mentalitetiga moslashtirilgan yagona model hisoblanadi. Bu moslashuv LIR modelining asosiy ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

### LIR modelini samarali qoʻllashning pedagogik shartlari

LIR modelini samarali qoʻllash bir qancha pedagogik shartlarning bajarilishini talab qiladi:

*Birinchi shart* - **muammo sifati:** loyiha topshirigʻi real, qiziqarli va oʻquvchi hayotiga yaqin boʻlishi kerak. Sun’iy yoki kitobiy muammolar oʻquvchi qiziqishini uygʻotmaydi va mustaqil izlanishga undamaydi.

*Ikkinchi shart* - **oʻqituvchi tayyorgarligi:** oʻqituvchi “bilim beruvchi”dan “fasilitator”ga oʻtishga psixologik jihatdan tayyor boʻlishi kerak. Bu oʻqituvchidan oʻz rolidagi qarashlarda jiddiy oʻzgarishni talab qiladi. Tolipov va Usmonboyeva ta’kidlaganidek, pedagogik texnologiyani qoʻllashda oʻqituvchining kasbiy tayyorgarligi hal qiluvchi omildir.

*Uchinchi shart* - **vaqt muvofiqligi:** LIR modeli bir darsda tugamaydigan jarayon. Oʻqituvchi oʻquv yilida kamida 6–8 ta loyiha uchun vaqt rejasini oldindan tuzishi va bu vaqtni oʻquv dasturiga moslashtirishi zarur.

*Toʻrtinchi shart* - **“xato qilishga ruxsat” muhiti:** LIR modelida oʻquvchi xato qilishi tabiiy va kerak. Oʻqituvchi “bu xato” deb aytmaydi, balki “boshqa imkoniyat bormi?” deb savol beradi. Bu “psixologik xavfsizlik” muhiti oʻquvchida ijodiy fikrlash va xavf olishga tayyor boʻlishni rivojlantiradi.

*Beshinchi shart* - **baholash mezonlarining oldindan belgilanishi:** oʻquvchilar loyihaga kirishdan oldin ular qanday baholanishini bilishi kerak. Karimova ta’kidlaganidek, shaffof baholash tizimi oʻquvchi motivatsiyasini sezilarli oshiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

LIR modelining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1. Scaffolding nisbatining aniq raqamli ifodasi (80:20 → 10:90);
2. 5 mezon × 3 daraja asosida mustaqillikni baholash tizimi;
3. “Izlanish kundaligi” orqali oʻz-oʻzini tartibga solishni qayd etish mexanizmi;
4. Oʻzbekiston maktabining oʻziga xosliklariga moslashtirilgan yagona model.

LIR modeli - loyihaviy ta’lim asosida oʻquvchilarning mustaqil oʻquv-izlanish faoliyatini rivojlantirishga moʻljallangan, Oʻzbekiston maktabi sharoitiga moslashtirilgan besh bosqichli pedagogik model. Modelni amaliyotga joriy etish uchun oʻqituvchilarni tayyorlash kurslari, oʻzbek tilidagi metodik qoʻllanma nashr etish va loyihaviy ta’limni davlat standartlarida mustaqil metod sifatida belgilash tavsiya etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century // The Clearing House. - 2010. - Vol. 83, №2. - P. 39–43.
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonuni (2020); Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022); Ta’lim va fan sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (2021).
3. Dewey J. Experience and Education. - New York: Macmillan, 1938. - 116 p.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society. - Cambridge: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
5. Zimmerman B.J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement // Educational Psychologist. - 1990. - Vol. 25, №1. - P. 3-17.
6. Karimova Z.T. Oʻquvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi. - Toshkent: TDPU, 2019. - 144 b.
7. Tolipov Oʻ., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2005. - 232 b.
8. Muslimov N.A., Mavlonova R.A. Oʻquvchilar mustaqilligini rivojlantirishning pedagogik asoslari. - Toshkent: TDPU, 2018. - 180 b.
9. Полат Е.С. Метод проектов в современной школе. - Москва: АРИО, 2012. - 224 с.
10. Хуторской А.В. Эвристическое обучение. - Москва: МПА, 1998. - 266 с.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №7(2)**


© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.